

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

MAMLAKATIMIZDA YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ TUSHUMLARINI PROGNOZLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Bazarov Xurshid Mirzajanovich
TDIU Mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya

O'zbekiston Respublikasida yer qa'ridan foydalanuvchilarga soliq solishni tartibiga solish, soliq va boshqa majburiy to'lovlar yig'iluvchanligining zarur darajasini ta'minlash, soliq to'lovchilarning soliq ma'muriyatchiligini amalga oshirish hamda soliq majburiyatlarini bajarish bo'yicha o'zaro hamkorlik asosida servis-texnik xizmat ko'rsatilishini tubdan takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlar: resurs solig'i, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, byudjet siyosati, byudjet, soliq ma'murchiligi, soliq salohiyati, normativ tahlil, pozitiv tahlil, soliq yuki, reprezentativ soliq stavkasi, o'rtacha stavka, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari.

Kirish

Hozirgi jahon iqtisodiyotidagi globallashev jarayonida mamlakatimizda chet el investisiyalarini keng jalb qilgan holda foydali qazilma konlarini sanoat usulida o'zlashtirish, zamonaviy usullar va texnologiyalar yordamida geologiya-qidiruv ishlarini rag'batlantirish hamda yer qa'ridan foydalanuvchilarga soliq solish tartibini yanada takomillashtirish bo'yicha bir qancha ishlar olib borilmoqda. Shunga ko'ra, iqtisodiyotda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yig'iluvchanligining zarur darajasini ta'minlash, yer osti boyliklarini asrash ularni soliqqa tortishning yangi mezon va mexanizmlarini takomillashtirish, iqtisodiyoti rivojlanishiga amaliy ta'sirini baholash masalalari muhim ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Tahlil va natijalar

O'zbekiston Respublikasida 2022 yildan soliq siyosatiga kiritilgan yangiliklarga asosan, O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunlari (29.12.2021 yildagi O'RQ-741-son), shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasining "2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

to'g'risida"gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi" Qarori bilan foydali qazilmalarni qazib olishni soliqqa tortish bo'yicha bir qancha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

1) oltin, kumush, platina, palladiy, mis, ruh, qo'rg'oshin va molibden bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning soliq solish bazasi amaldagi o'rtacha sotish narxidan London metall birjasining narxlariga o'zgartirildi;

2) tabiiy gaz, neft va metallarni qazib olib, yakuniy iste'molchiga sotadigan korxonalar uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblashda soliq bazasini tashish va qayta ishlash bilan bog'liq xarajatlar summasiga kamaytirish ("Netbek" mexanizmi) mexanizmi joriy qilindi;

3) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari: neft bo'yicha – 20 dan 10 foizga, gaz bo'yicha – 30 dan 10 foizga, oltin va mis uchun – 10 dan 7 foizga, volfram bo'yicha – 10,4 dan 2,7 foizga, uran bo'yicha esa – 10 dan 8 foizgacha pasaytirilmoqda hamda qolgan pozisiyalar bo'yicha stavkalar birxillashtirildi (amaldagi 81 ta pozisiya 29 ta pozisiyaga unifikatsiya qilindi).

Foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi davlat ulushiga ega korxonalar uchun (yangi konlardan tashqari), shuningdek, mahsulot taqsimotiga oid bitimlar (jami 5 ta) doirasida yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan belgilanishi ko'zda tutilmoqda;

yangi foydalanishga topshirilgan neft va gaz quduqlari uchun mol-mulk solig'idan dastlabki ikki yil davomida to'liq ozod qilish, keyingi uch yilda belgilangan soliq stavkasining 50 foiziga kamaytirib qo'llash orqali yangi konlarni o'zlashtirish uchun rag'batlantirish mexanizmi yaratilmoqda.

foydali qazilmalarning narxi oshishi natijasida vujudga keladigan yuqori darajadagi foydaning bir qismini byudjetga undirish maqsadida maxsus renta solig'i joriy qilindi.

Ushbu soliqni yangi konlarda neft, tabiiy gaz, gaz kondensati, qimmatbaho, rangli, noyob va radioaktiv metallarni qazib olish (ajratib olish) bilan shug'ullanadigan yer qa'ridan foydalanuvchilar to'laydi.

Mazkur soliq bo'yicha to'lovlar faqatgina investorlar tomonidan konni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar qoplanganidan keyingi daromadidan 25 foizlik stavkada to'laydi. Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'i metall va uglevodorod xom ashyolarini 2022 yil 1 yanvardan keyin qazib olish boshlangan, lisenziyalangan uchastkalarga tatbiq etiladi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 64-bobida yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi ishlab chiqilgan.

Mazkur kodeksning 449-moddasiga asosan, O‘zbekiston hududida yer qa’ridan foydali qazilmalarni qazib olishni va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali qazilmalarni ajratib olishni (bundan buyon ushbu bo‘limda foydali qazilmalarni qazib olish (ajratib olish) deb yuritiladi) amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni soliq to‘lovchilari (bundan buyon ushbu bo‘limda soliq to‘lovchilar deb yuritiladi) deb e’tirof etiladi.

Qonunchilikda nazarda tutilgan shartlarga rioya etgan holda qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olishga doir faoliyatni amalga oshirishga taalluqli qism bo‘yicha soliq to‘lovchilar bo‘lmaydi. Soliq kodeksining 450-moddasiga asosan, Foydali qazilmani qazib olish (ajratib olish) hajmi yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq solish ob‘yektidir.

Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi kodeksning 64¹-bobida belgilangan. Ushbu kodeksning 454²-moddasida belgilangan tartibda aniqlanadigan, qazib olingan (ajratib olingan) metallni yoki uglevodorod xom ashyosini realizasiya qilishdan olingan renta daromadi foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘ini solish ob‘yektidir.

Kodeksning 454⁴-moddasida ryenta daromadining summasi soliq bazasi hisoblanadi, renta zarari mavjud bo‘lganda esa soliq bazasi nolga teng deb e’tirof etiladi.

Soliq bazasi ushbu Kodeksning 454³-moddasida o‘ziga nisbatan renta daromadini aniqlash nazarda tutilgan yer qa’rining har bir lisenziyalangan uchastkasi (lisenziyalangan uchastkalar guruhi) bo‘yicha alohida hisoblab chiqariladi.

Metallarni va uglevodorod xom ashyosini qazib olishni (ajratib olishni) amalga oshiruvchi chet el investisiyalari ishtirokidagi korxonalar soliq bazasini AQSH dollarida aniqlash huquqiga ega.

Agar birinchi soliq davri yakunlariga ko‘ra renta zarari olingan bo‘lsa, soliq to‘lovchi bunday zarar miqdorini keyinchalik “jamg‘arilgan renta zarari” maxsus hisobvarag‘ida AQSH dollarida, ushbu moddaning oltinchi qismiga muvofiq belgilanadigan valyutaning o‘rtacha yillik almashuv kursi bo‘yicha hisobga olishga haqli. Bunda har bir keyingi soliq davrida ushbu hisobvaraqda hisobga olinadigan summa joriy yilning 31 dekabr holatiga ko‘ra AQSH dollarida nominasiya qilingan,



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

2 foizlik punktga oshirilgan, to‘lanish muddati o‘n yil (2031 yilgacha) bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi xalqaro obligasiyalarining daromadligidan kelib chiqib aniqlanadigan koeffitsiyentga oshiriladi.

Soliq to‘lovchi tomonidan metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olish (ajratib olish) huquqi uchun ruxsatnoma (lisenziya) olingan sanaga qadar haqiqatda amalga oshirilgan va tegishli lisenziyalangan uchastka bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xarajatlar, xususan, quyidagilarga doir xarajatlar tarixiy xarajatlar jumlasiga kiradi:

- 1) geologik o‘rganish uchun yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun ruxsatnoma (lisenziya) olishga va (yoki) metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olish (ajratib olish) uchun ruxsatnoma (lisenziya) olishga, shuningdek metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olish (ajratib olish) huquqini olishga;
- 2) yer qa’rini geologik jihatdan o‘rganishga;
- 3) metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olish (ajratib olish) uchun tayyorgarlik ishlariga.

Agar yaratish (olish) xarajatlari kapital xarajatlar tarkibida hisobga olingan aktivlardan keyinchalik metallni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olishga (ajratib olishga) doir ishlab chiqarish jarayonida soliq to‘lovchi tomonidan bir yildan ortiq vaqt davomida foydalanilmasa, ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan koeffitsiyent ularni olish xarajatlari nisbatan qo‘llanilmaydi.

Bizning fikrimizcha prognozni hisoblash uchun O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksiga muvofiq bir yil yoki o‘rta muddatlar uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti va pensiya jamg‘armasi daromadlarini prognozlashtirish tartibini belgilash kerak. Haqiqiy bazaga bog‘liq bo‘lgan yoki uning qiymatini aniqlaydigan soliq bazasi yoki makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar asos bo‘lib hisoblanadigan soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha qonunchilik hujjatlarida joriy yil bo‘yicha tushumlarni baholash hisob-kitobi quyidagi usullar bilan amalga oshirish lozim bo‘ladi:

Qonunchilikka muvofiq, Davlat byudjeti, shu jumladan mahalliy byudjetlarning daromadlari prognozini ishlab chiqishda, aniqlashtirishda qo‘llanilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq prognozini hisoblash tartibi quyidagicha aniqlanadi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

$$R_s = \sum_{i=1}^n \max(V_s * t_s; V_s * t_{min})$$

R_s – yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq prognozi

i, n – yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalar

V_s – yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalar bazasining kelgusi yildagi prognozi

t_s – tegishli qazilma bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning stavkasi

t_{min} – tegishli qazilma bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning minimal miqdori

Bundan tashqari, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashdan olinadigan daromadlar tushumlari prognozini hisoblash uchun quyidagilardan:

- navbatdagi moliya yili va rejalashtirish davri uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognoz ko'rsatkichlari;

- o'tgan davrlar uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun solig'i bo'yicha soliq bazasi, hisoblangan summalar va haqiqiy tushumlar dinamikasi;

- Soliq kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq soliq stavkalari.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha tushumlarining umumiy hajmini hisoblash (N_{Tax}) quyidagi formulaga binoan har bir foydali qazilma turi bo'yicha, shu jumladan Soliq kodeksining XVIII bo'limida nazarda tutilgan asosiy foydali qazilmani qazib olish paytida yer qa'ridan qazib olinadigan foydali qazilmalar bo'yicha alohida-alohida amalga oshiriladi:

$N_{Tax} = N_1 + N_2 + N_3 + \dots + N_n$, bu yerda:

$N_1 + N_2 + N_3 + \dots + N_n$ – Soliq kodeksining 452-moddasiga muvofiq soliq solish ob'yekti bo'yicha soliq summasi;

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha tushumlar prognozi hisob-kitobi prognozi hisob-kitobi quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$N_P = N_O * V_{tog} / 100, (+/-) F$, bu yerda:

N_P – yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning prognoz summasi;

N_O – joriy yil bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumlarini baholash;

V_{tog} – Tog'-kon sanoati va karyerlarni qazib olishning YAQQ, o'tgan yilga nisbatan % da;

F – realizasiya amalga oshirilmaganda (qisman, to'liq) soliq bazasini aniqlashdagi o'zgarishlarni, o'z ehtiyojlari uchun ishlatishni, haqiqiy tushumlarni, shuningdek



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

qonunchilikdagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda tushumlarning tuzatish kiritilgan summasi.

Bunda,

$N_{O(tog)} = (N_{his.(tog)} * T_{B(tog)}) / 12 * K_B + N_{B(his.)}$, bu yerda:

$N_{O(tog)}$ – qonunchilik hujjatlarida joriy yil bo'yicha soliq tushumlarini baholash;

$N_{his.(tog)}$ – hisobot yilida soliqning haqiqiy tushumi;

$T_{B(tog)}$ – joriy yil bo'yicha tog'-kon sanoati va karyerlarni qazib olishning VDS o'sish-pasayish sur'ati, %da;

12 – yilda oylar soni;

K_B – joriy yilda prognoz qilinadigan davr (oylar soni);

$N_{B(his.)}$ – joriy yilning ma'lum davrida soliqning haqiqiy tushumlari.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagilar taklif qilinadi:

Yer qa'ridan foydalanuvchilar tomonidan qazib olinadigan foydali qazilmalar to'g'risidagi ma'lumotlarning yagona elektron axborot bazasini joriy etish; noruda qurilish materiallaridan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lovini nazoratini yo'lga qo'yish va qazilmalar bo'yicha barcha hududlarda bir hil talqin qilinishi uchun barcha turdagi noruda qurilish materiallariga nominal narx belgilash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
2. O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz.

